




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2021- yil yanvar-iyun)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9 492,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,1 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (95,0 %)ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 7,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining - 28,7 % ga hamda togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 0,5 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 12,7 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (yanvar-iyun oylari, % da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Chaqiq tosh, ming t.	116,3	129,3	13,0




Ishlab chiqaradigan sanoat
Yanvar-iyun oylarida



2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 019,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,0 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida - 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 17,3 % (17,7 %), o'rta-quyi texnologiyali - 14,5 % (13,9 %) va quyi texnologiyalisi - 62,9 % (62,4 %)ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 26,4 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 35,0 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,5 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,6 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,0 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,2 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 29,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,5 %)ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da


2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 20,6 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,0 martaga o'sgan), 89,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (1,0 %) ishlab chiqarishda o'sish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Yumshoq bug'doy va spelta uni



O'simlik yog'i (tozalangan)



Aroq




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	19,5	25,5	6,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	116,9	178,7	61,8
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	115,4	304,2	188,8
Vino, ming litr	435,2	436,0	0,8
Un, ming tonna	88,3	89,2	0,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	16,2	20,6	4,4



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-iyun oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 290,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,7 foizga oshganligi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(yanvar-iyun oylari, % da)





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	213,9	206,3	-7,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	510,0	3 790,1	3 280,1

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yanvar-iyun oylari, % da)
2020- yil % da
2021- yil % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	26,9	48,7	21,8
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	6,2	19,6	13,4
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	8,8	12,6	3,8
To'qimachilik chiqindilari, tonna	27,4	27,9	0,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 81,1 % ga, oqava suvlarni ishlami 3,2 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 43,0 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 948,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 24,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 62,6 % ni tashkil etdi.



















Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,8 % (2020- yil yanvar-iyun oyida 4,9 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,1 % ni, shuningdek, Urgut tumani 12,4 % ni, Samarqand tumani 10,3 % ni, Toyloq tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o'sish sur'ati (124,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Paxtachi (372,5 %), Qo'shrobot (220,1 %), Toyloq (164,4 %), Kattaqo'rg'on (177,2 %), Narpay (134,3 %) hamda Oqdaryo (125,8 %) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-iyun oyida

	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da	
	2444,9	41,1	117,7	Samarqand sh.		168,0	2,8	134,3
	109,8	1,8	83,3	Kattaqo'rg'on sh.		81,8	1,4	103,5
	88,4	1,5	125,8	Oqdaryo		143,9	2,4	79,5
	120,9	2,0	120,8	Bulung'ur		180,0	3,0	372,5
	330,8	5,6	99,5	Jomboy		614,6	10,3	136,4
	134,0	2,3	107,2	Ishtixon		94,0	1,6	128,1
	223,4	3,8	177,2	Kattaqo'rg'on		735,4	12,4	127,0
	31,4	0,5	220,1	Qo'shrabot		446,7	7,5	164,4
					Narpay			
					Payariq			
					Pastdarg'om			
					Paxtachi			
					Samarqand			
					Nurobod			
					Urgut			
					Toyloq			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,9 % ni, shuningdek, Urgut tumani 14,4 % ni, Samarqand tumani 8,5 % ni hamda Jomboy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (364,1 %), Paxtachi (261,3 %), Toyloq (228,3 %), Samarqand (160,0 %) hamda Oqdaryo (158,6 %) tumanlarida qayd etildi.


















Hududlar bo'yicha noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-iyun oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
Samarqand sh.	1530,8	41,9	115,5	Narpay	94,3	2,6	135,4
Kattaqo'rg'on sh.	70,4	1,9	97,0	Payariq	39,3	1,1	64,8
Oqdaryo	55,3	1,5	158,6	Pastdarg'om	101,4	2,8	98,4
Bulung'ur	76,8	2,1	114,7	Paxtachi	63,4	1,7	261,3
Jomboy	218,4	6,0	98,7	Samarqand	308,9	8,5	160,0
Ishtixon	77,3	2,1	104,1	Nurobod	45,4	1,2	103,0
Kattaqo'rg'on	100,8	2,8	125,4	Urgut	525,2	14,4	117,5
Qo'shrabot	17,3	0,5	364,1	Toyloq	327,7	9,0	228,3

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 38,9 % ni, shuningdek, Samarqand tumani 13,2 % ni, Urgut tumani esa 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Paxtachi tumani (484,5 %), Kattaqo'rg'on tumani (268,1 %) hamda Payariq tumanida (230,4 %) qayd etildi.


Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)


















	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da
	860,7	38,9	123,6		73,7	3,3	133,0
Samarqand sh				Narpay			
	39,4	1,8	66,6		42,5	1,9	230,4
Kattaqo'rg'on sh.				Payariq			
	33,1	1,5	93,5		42,5	1,9	54,5
Oqdaryo				Pastdarg'om			
	40,2	1,8	137,3		116,7	5,3	484,5
Bulung'ur				Paxtachi			
	106,3	4,8	101,0		291,4	13,2	119,9
Jomboy				Samarqand			
	56,7	2,6	111,6		48,6	2,2	165,7
Ishtixon				Nurobod			
	122,6	5,5	268,1		210,2	9,5	159,2
Kattaqo'rg'on				Urgut			
	14,1	0,6	148,2		113,5	5,1	92,6
Qo'shrabot				Toyloq			


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-iyun oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 841,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 40,5 % ni tashkil etdi.


**Hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-iyun oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi %da			O'sishi %da		
	9 492,9			100,0			108,1		
ViLOYAT									
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	4339,1	45,7	110,5		261,0	2,7	103,5		
Samarqand sh.			Narpay						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	152,8	1,6	86,2		189,0	2,0	113,1		
Kattaqo'rg'on sh.			Payariq						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	204,0	2,1	114,1		321,9	3,4	104,8		
Oqdaryo			Pastdarg'om						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	134,2	1,4	107,1		270,3	2,8	127,5		
Bulung'ur			Paxtachi						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	966,7	10,2	94,1		782,9	8,2	114,3		
Jomboy			Samarqand						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	221,3	2,3	107,5		106,1	1,1	113,0		
Ishtixon			Nurobod						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	253,3	2,7	104,4		800,3	8,4	107,2		
Kattaqo'rg'on			Urgut						
	Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		Mlrd. so'm	Ulushi %da	O'sishi %da		
	34,0	0,4	103,8		456,1	4,8	131,5		
Qo'shrabot			Toyloq						




Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Toyloq (2020- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan 131,5 %), Paxtachi (127,5 %), Samarqand (114,3 %), Oqdaryo (114,1 %) hamda Nurobod (113,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da





Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,7 % ni), hamda Jomboy (10,2 %), Urgut (8,4 %), Samarqand (8,2 %), Toyloq (4,8 %) va tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Qo'shrabot (0,4 %) hamda Nurobod (1,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




























Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (7 825,3 ming so'm), Jomboy tumani (5 464,4 ming so'm) va Samarqand tumani (3 040,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 394,1 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Qo'shrabot (253,4 ming so'm), Nurobod (691,8 ming so'm), Bulung'ur (705,0 ming so'm) va Payariq (739,1 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri
keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so'm**



	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari	
	2394,1		1500,1	
Viloyat				
	Sanoat mahsulotlari 7825,3	Iste'mol mahsulotlari 4409,2		Sanoat mahsulotlari 1207,1
	Samarqand sh.			Iste'mol mahsulotlari 776,9
			Narpay	
	Sanoat mahsulotlari 1681,2	Iste'mol mahsulotlari 1207,7		Sanoat mahsulotlari 739,1
	Kattaqo'rg'on sh.			Iste'mol mahsulotlari 319,9
			Payariq	
	Sanoat mahsulotlari 1256,0	Iste'mol mahsulotlari 544,1		Sanoat mahsulotlari 890,6
	Oqdaryo			Iste'mol mahsulotlari 398,2
			Pastdarg'om	
	Sanoat mahsulotlari 705,0	Iste'mol mahsulotlari 635,1		Sanoat mahsulotlari 1846,4
	Bulung'ur			Iste'mol mahsulotlari 1229,7
			Paxtachi	
	Sanoat mahsulotlari 5464,4	Iste'mol mahsulotlari 1870,1		Sanoat mahsulotlari 3040,5
	Jomboy			Iste'mol mahsulotlari 2386,7
			Samarqand	
	Sanoat mahsulotlari 853,1	Iste'mol mahsulotlari 516,5		Sanoat mahsulotlari 691,8
	Ishtixon			Iste'mol mahsulotlari 613,1
			Nurobod	
	Sanoat mahsulotlari 911,4	Iste'mol mahsulotlari 804,0		Sanoat mahsulotlari 1533,5
	Kattaqo'rg'on			Iste'mol mahsulotlari 1409,1
			Urgut	
	Sanoat mahsulotlari 253,4	Iste'mol mahsulotlari 234,0		Sanoat mahsulotlari 2211,9
	Qo'shrabot			Iste'mol mahsulotlari 2166,4
			Toyloq	



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 823,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulung'ur, Qo'shrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kattaqo'rg'on (85,6 %), Urgut (73,3 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on (66,4 %) shahrida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichik ulush Narpay (17,1 %), Ishtixon (20,0 %), Samarqand shahar (24,8 %) va Toyloq (32,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7 753 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 696 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,9 %ni) Samarqand shahriga, 1141 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 725 tasi (9,4 %) Samarqand tumaniga, 698 tasi (9,0 %) Pastdarg'om tumaniga, 472 tasi (6,1 %) Ishtixon tumaniga, 368 tasi (4,7 %) Jomboy tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 1109 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 158 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,2 %) Urgut tumanida, 142 tasi (12,8 %) Samarqand shahrida, 113 tasi (10,2 %) Samarqand tumanida, 109 tasi (9,8 %) Pastdarg'om tumanida hamda 92 tasi (8,3 %) Kattaqo'rg'on tumanida tashkil etildi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 696 ta), Urgut (1141 ta), Samarqand (725 ta), Pastdarg'o'm (698 ta), Ishtixon (472 ta) va Jomboy (368 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi
(2021- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo'shrabot (144 ta), Nurobod (170 ta), Narpay (210 ta), Paxtachi (221 ta), Bulung'ur (284 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on (273 ta) shahrida qayd etildi.

Sanoat statistikasi
Bo'limi
Tel.: (66) 235-06-80